

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH-OLIV TA'LIM SIFATINI TUBDAN ISLOH QILISH SARI MUHIM QADAMDIR

Axmedova Dilnora Kobiljonovna

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Navoiy innovatsiyalari universiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o'qituvchisi

+998934642105 dilnoraaxmedova4@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimidagi korrupsiya holatlari, ularning salbiy oqibatlari va ta'lim sifatiga ta'siri atroflicha tahlil qilinadi. Korrupsiya oliy ta'limda adolatsizlik, tanish-bilishchilik, bilim darajasining pasayishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida halollik, oshkoralik, qonun ustuvorligini targ'ib etish, korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish dolzarb masalalardandir. Maqolada ushbu madaniyatni rivojlantirishning samarali yo'llari, metodik asoslari va ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi hamda amaliy takliflar beriladi. Xususan, elektron boshqaruv tizimlari, mustaqil baholash mexanizmlari va xalqaro tajriba asosida korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb jihatlarini yoritiladi. Maqola oliy ta'lim sifatini oshirish yo'lida korrupsiyaga qarshi kurashni muhim omil sifatida ko'rsatadi va amaliy takliflar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, oliy ta'lim, korrupsiyaga qarshi madaniyat, halollik, islohot, oshkoralik, ta'lim sifati.

Annotation: This article thoroughly analyzes cases of corruption in the higher education system, their negative consequences, and their impact on the quality of education. Corruption in higher education leads to problems such as injustice, favoritism, and a decline in academic standards. Therefore, promoting integrity, transparency, and the rule of law in educational institutions and forming an anti-corruption culture are urgent issues. The article examines effective ways, methodological foundations, and mechanisms for developing this culture and provides practical recommendations. In particular, it highlights relevant aspects of combating corruption through e-governance systems, independent assessment mechanisms, and international experience. The article presents anti-corruption efforts as a key factor in improving the quality of higher education, enriched with practical suggestions.

Keywords: Corruption, higher education, anti-corruption culture, integrity, reform, transparency, quality of education

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются случаи коррупции в системе высшего образования, их негативные последствия и

влияние на качество образования. Коррупция в высшем образовании приводит к таким проблемам, как несправедливость, кумовство и снижение уровня знаний. Поэтому продвижение честности, открытости и верховенства закона в образовательных учреждениях, а также формирование антикоррупционной культуры являются актуальными задачами. В статье рассматриваются эффективные пути, методологические основы и механизмы формирования данной культуры, а также даются практические рекомендации. В частности, освещаются актуальные аспекты борьбы с коррупцией на основе систем электронного управления, независимой оценки и международного опыта. Статья рассматривает борьбу с коррупцией как важный фактор повышения качества высшего образования и содержит практические предложения.

Ключевые слова: Коррупция, высшее образование, антикоррупционная культура, честность, реформа, открытость, качество образования

Kirish. Korrupsiya bugungi kunda global miqyosda ijtimoiy taraqqiyotga jiddiy to'siq bo'lib qolayotgan murakkab va ko'p qirrali muammo sanaladi. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi korrupsiya jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lgan bilim, malaka va kompetensiyalarning haqiqiy qadriyat sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Oliy ta'lim tizimida korrupsion holatlarning mavjudligi bilim olish jarayonining adolatliligi va shaffofligiga putur yetkazadi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurash ta'lim sifatini isloh qilishda muhim strategik omil sifatida qaralishi lozim. Uni oldini olish undanda katta masala bo'lib, davlatimiz rahbari tabiri bilan aytgandek, "Korrupsiyaning oldini olish – davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni "halollik vaksinasi bilan emlash" dan boshlanadi".¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqlariga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tarkibi to'liq yangilanishi, ularga viloyat xalq deputatlari kengashi raislari bosh bo'lishi aytib o'tildi. Hududiy kengashlar insongacha tushib, korrupsiyaviy omillarni aniqlaydi, ularga berish uchun qaysi qonunni o'zgartirish zarur, degan savollarga javob topadi. Hamda milliy kengash takliflar kiritishi belgilab olindi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, ayrim oliy ta'lim muassasalarida hali-hanuz:

-kirish imtihonlarida noqonuniy vositachilik,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi, 2025-yil 5-mart

- baholarni adolatsiz qo'yish,
- dissertatsiyalarni pul evaziga yozib berish,
- xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanish holatlari kuzatilmoqda.

Bu holatlar nafaqat ta'lim sifatini, balki yoshlarda halollik, mehnatsevarlik, bilim olishga bo'lgan qiziqishni pasaytiradi. Korrupsion muhitda shakllangan mutaxassis jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sh olmaydi.

Huquqiy choralar muhim bo'lsa-da, korrupsiyaga qarshi kurashda madaniy va axloqiy omillar muhim rol o'ynaydi. Korrupsiyaga qarshi madaniyat halollik va vijdonliligi, qonunga hurmat, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy javobgarlik kabi tamoyillarga asoslanadi. Talabalarda bu qadriyatlarni shakllantirish uchun korrupsiyaga qarshi madaniyat asoslari bo'yicha alohida kurslar joriy etishi, halollik kodekslarini ishlab chiqishi, ochiq baholash tizimini yo'lga qo'yishi zarur." Islohotlarimiz natijadorligi-avvalo, sadoqatli, fidoyi va korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodga bevosita bog'liq. Bu ishda fikri toza yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi shart".²

Chet el tajribasida korrupsiyaga qarshi kurashning bir nechta samarali yo'llari mavjud:

- elektron boshqaruv tizimlari (masalan, raqamli baholash, onlayn imtihonlar, avtomatlashtirilgan o'qituvchi yuklamalari) inson omilini kamaytiradi;

- akademik erkinlik va mustaqil baholash agentliklari orqali ta'lim sifatining real monitoringi yo'lga qo'yiladi;

- xalqaro akkreditatsiya tizimlari korrupsion xavf darajasini pasaytiradi, raqobatbardoshlikni oshiradi.

Chet el tajribasiga ko'ra, Germaniya va Skandinaviya davlatlarida ta'lim tizimida baholash to'liq raqamlashtirilgan. Janubiy Koreyada esa professorlar faoliyati mustaqil baholovchilar tomonidan monitoring qilinadi. Gruziyada korrupsiyaga qarshi kuchli ijtimoiy nazorat, fuqarolik jamiyatining faolligi ustuvordir. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham bu yo'nalishdagi islohotlar boshlangan. Davlat test markazi orqali markazlashgan imtihonlar, elektron baholash tizimlari va "Halollik kodekslari" joriy qilinmoqda. Davlat test markazi orqali markazlashgan imtihon tizimi joriy etildi. Oliy ta'lim muassasalarida elektron baholash tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Korrupsiya holatlariga "nol toqat" tamoyili asosida yondashilmoqda. "Korrupsiyasiz soha" loyihasi doirasida oliy ta'limda monitoring olib borilmoqda.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi, 2025-yil 5-mart

Xulosa va takliflar. Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolovchi mexanizmlarga emas, balki madaniy, axloqiy, boshqaruv va texnologik vositalarga asoslanishi kerak. Bu borada quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Oliy ta'limda halollik tamoyillarini institutlashtirish;
2. Barcha bosqichlarda ochiq baholash tizimini kengaytirish;
3. Talaba va o'qituvchilarning korrupsiyaga qarshi immunitetini kuchaytirish bo'yicha maxsus trening va kurslarni joriy etish;
4. Mustaqil baholovchi agentliklar va nodavlat monitoring tizimlarini shakllantirish;
5. Raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish.

“Korrupsiyaga qarshi kurashda barchamiz yagona kuch bo‘lib harakat qilsak, albatta, yanada katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois, mahalla faollari, nuroniyalar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san’at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga ‘jamiyat tanasidagi saraton’ sifatida qarashi kerak.”³ Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurash – oliy ta'lim sifatini tubdan isloh qilish sari olib borilayotgan islohotlarning ajralmas va strategik tarkibiy qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi, 2025-yil 5-mart.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida Qonuni – 2017-yil 3-yanvar.
3. “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosati” mavzusida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari va farmonlari – turli yillarda.
4. Mavzuga oid Adliya vazirligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi nashrlari.
5. Xakimov N., Korrupsiyaga qarshi kurashishda yoshlarning roli. – Toshkent, 2021.
5. Karimov N., Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi. – Toshkent, 2020.
6. Toshboev A., Huquqiy madaniyat va korrupsiyaga qarshi kurash. – Toshkent, 2022.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi, 2025-yil 5-mart